

TEXNOLOGIK YO‘NALISH TALABALARIDA AMALIY FAOLIYATGA YO‘NALTIRILGAN MUSTAQIL TA’LIM MODELLARINI ISHLAB CHIQISH

Sayfullayeva Dilafro‘z Axmadovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, “Texnologik ta’lim” kafedrası dotsenti

Annotatsiya: *Ushu maqolada texnologik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar mustaqil ta’lim jarayonini amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan holda tashkil etishning pedagogik-metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, mustaqil ta’lim modelini yaratish tamoyillari, texnologik ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar tizimi hamda jarayon samaradorligini baholash mezonlari ilmiy asosda bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, amaliy faoliyat, texnologik ta’lim, loyiha asosida ta’lim, keys-stadi, virtual laboratoriya, konstruktorlik topshiriqlari, modellashtirish, innovatsion metodlar, refleksiya, ta’lim modeli, kompetensiyalar.*

Texnologik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda mustaqil ta’limni amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, uning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ta’lim jarayonidagi zamonaviy talablarga ko‘ra, talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki ulardan amaliyotda foydalanish, texnologik jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, loyihalash, konstruktorlik va dizaynerlik yechimlarini yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Shu bois, texnologik yo‘nalish talabalari uchun mustaqil ta’limni amaliy faoliyatga integratsiyalashgan tarzda tashkil etish dolzarb masala sifatida qaraladi.

Amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim modellarini ishlab chiqish jarayonida talabaning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlar, loyiha ishlari, keys-stadi vaziyatlari, konstruktorlik-texnologik topshiriqlar, virtual laboratoriyalar va raqamli platformalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Bunday model talabalarining o‘z-o‘zini o‘rganish, ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga innovatsion yondashuv bilan qarash, texnologik yechimlar yaratish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Model ishlab chiqishda quyidagi ilmiy-pedagogik tamoyillar asos bo‘lib xizmat qiladi: o‘quv jarayonining faoliyatga yo‘naltirilganligi, talabaning shaxsiy faolligi, amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlik, bosqichma-bosqich murakkablashuv, refleksiya jarayonining mavjudligi, mustaqil izlanish va tahliliy fikrlashning rag‘batlantirilishi. Bu tamoyillar asosida tuzilgan mustaqil ta’lim modeli talabani kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlovchi effektiv tizim sifatida shakllanadi. Shuningdek, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim modeli talabaning texnologik bilimlari bilan birgalikda uning kommunikativ, muhandislik, loyihalash, texnologik jarayonlarni boshqarish va baholash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni o‘z ichiga oladi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar,

integrativ pedagogik metodlar va real ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq topshiriqlardan keng foydalanishni talab etadi. Natijada ishlab chiqilgan model texnologik yo'nalish talabalarining mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etadi, ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtiradi, kasbiy-ijodiy faolligini oshiradi hamda ularni mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarni mustaqil o'qishga, muammolarni tahlil qilishga, amaliyotga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa texnologik ta'lim yo'nalishida talabalar nazariy bilim bilan bir qatorda konstruktorlik, modellash, loyihalash va texnologik yechimlar yaratish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur. Shu bois mustaqil ta'limni amaliy faoliyat bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish samaradorlikni ta'minlaydi.

1. Amaliy faoliyatga yo'naltirilgan mustaqil ta'limning nazariy asoslari


Texnologik ta'limda mustaqil ta'lim talabaning quyidagi kompetensiyalarini rivojlantiradi:

- tahliliy fikrlash
- konstruktorlik va dizaynerlik tafakkuri
- amaliy jarayonni modellash
- innovatsion yechim taklif qilish
- iqtisodiy–texnologik asosni hisoblash

Ushbu jarayonni samarali tashkil qilish uchun innovatsion metodlar — loyiha asosida ta'lim, keys-stadi, interaktiv masalalar, raqamli laboratoriyalar va virtual konstruksiyalar muhim vosita sifatida qaraladi.

2. Amaliy faoliyatga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim modeli quyidagicha:

Texnologik ta'lim uchun ishlab chiqilgan mustaqil ta'lim modelining strukturaviy sxemasi



3. Amaliy faoliyatga asoslangan topshiriqlar tizimi texnologik yo‘nalish talabalari uchun mustaqil ta‘limga mo‘ljallangan asosiy topshiriq turlarini ko‘rsatishini jadval ko‘rinishida tasnifladik.

1-Jadval. Amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan mustaqil topshiriqlar tasnifi

№	Topsqiriq turi	Mazmuni	Kutilgan natija
1	Loyiha topshirig‘i	Mahsulot yoki texnologik jarayonni yaratish	Dizayn, loyihalash, modellashtirish ko‘nikmalari
2	Keys-stadi	Real muammoli vaziyatni tahlil qilish	Tahliliy fikrlash, muammoga yechim topish
3	Konstruktorlik topshiriqlari	Mexanik yoki elektron qurilmalarni chizish, yig‘ish	Muhandislik tafakkuri, konstruktorlik bilimlari
4	Virtual laboratoriya	3D modellashtirish, simulyatsiya	Amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz muhitda rivojlantirish
5	Texnologik xarita tuzish	Ishlab chiqarish jarayonini bosqichma-bosqich rejalash	Texnologik jarayonni boshqarish qobiliyati
6	Mustaqil izlanish	Adabiyotlar bilan ishlash, taqqoslash, umumlashtirish	Tadqiqotchilik va analitik yondashuv

4. Model samaradorligini aniqlash mezonlari

Modelning natijaviy samarasi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- talabaning mustaqil ishlash faolligi;
- topshiriqlarni amaliyotga qo‘llay olish darajasi;
- loyiha ishlarining sifat ko‘rsatkichlari;
- texnologik jarayonlarni modellashtirishdagi aniq ko‘nikmalar;
- ijodiy yondashuv va innovatsion g‘oyalar soni;
- refleksiya va o‘z-o‘zini baholashning rivojlanishi.

Xulosa qilib aytganda, texnologik ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mustaqil ta‘limni amaliy faoliyatga yo‘naltirish — ularning nazariy bilimlarini amaliy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, muhandislik va dizaynerlik kompetensiyalarini shakllantirishning eng samarali yo‘lidir. Biz taklif etilgan model talabalarda mustaqil izlanish, ijodkorlik, texnologik tafakkur va kasbiy tayyorgarlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muslimov N.A., Boltaboev S.A., Turaev A.B. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Innovasiya-ziyo”, 2024. – 168 b.
2. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovasion ta‘lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.

3. Boboxo'jayev Y. Kasbiy ta'limda talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.2018.105 b
4. Toshboev T. Pedagogik texnologiyalar va mustaqil ta'limni tashkil etish yo'llari.2021.45 b
5. Sayfullayeva.D.A. Oliy ta'lim muassasalarida majburiy fanlarni o'qitishda mustaqil harakatga va faoliyatga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish. Pedagogik mahorat-ilmiy jurnal.2024.78b
6. Sayfullayeva.D.A., A.Safarov. Amaliy mashg'ulot texnologiya ta'limining tarkibiy qismi sifatida. Prospects of development of science and education" scientific and practical conference. 2024.330b

